

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL  
ETISHDA GURUH RAHBARINING PEDAGOGIK MAHORATI.**

**Sodiqova Aziza Hayitovna**

*Zarmad universiteti,  
pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, (PhD)*

**Tayanch tushunchalar:** Tarbiya, ta'lim, guruh rahbari, pedagogik mahorat, texnika, pedagogik texnologiya, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.

Bugungi kunda yoshlar ta'lim-tarbiyasi uzviylikda shakllantirishga oid mamlakatimizda bir qator chora-tadbirlarni amaliyatga tadbiq etish respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-tarbiyachi, ishlab chiqarish ularining ham ma'naviy-axloqiy qiyofasiga ham kasbiy-pedagogik mahoratlariga bog'liqdir. Shuning uchun ham bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ta'lim-tarbiyasiga e'tibor eng dolzARB masalalardan biridir.

O'quvchini tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o'zining ma'naviy qiyofasi va aqiy qobiliyati bilan jamiyat a'zolari o'rtaida yuksak hurmat ehtiromga sazovor bo'lgan kishilar, donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgan. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs Yoshlar ittifoqini balki jamiyat taraqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham o'qituvchi-pedagog kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqiy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi prizidenti I.A.Karimovning quydag'i so'zlagan nutqida bildirilgan fikrlarga diqqatini qaratish maqsadga muvofiqdir: "Tarbiyachining o'zi zamoaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzARB masalaga duch kelmoqdamiz. ... O'qituvchi bolalarimizga zamoaviy bilim bersin deb talab qilamiz, ammo zamoaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflardagi dars jarayonlarida o'qituvchi hukmrondir. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Printsip ham tayyor: "Mening aytganim aytgan, deganim degan" qabilida. Bugun o'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz".

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqadiki, bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisi ya'ni sinf rahbari qanday bo'lishi lozim?

Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi ya'ni guruh rahbari maxsus pedagogik, psixologik va mutaxasislik ma'lumotiga metodik tayyorgarligiga, shuningdek, yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlariga ega shaxs sanaladi. Guruh rahbari nafaqat ta'lif beruvchi, balki tarbiyachi hamdir.

Bugungi kun boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi, guruh rahbari qiyofasida quydagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. Guruh rahbari jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy isloxitlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

2. Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxasisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

4. Boshlang'ich ta'lif guruh rahbari tarbiyaviy ishlar metodikasi va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lif-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olishi imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

7. Guruh rahbari yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika nutq, so'z, qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirishi lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi uning nutqi quydagi xususiyatlarini o'zida aks ettira olishi kerak.

- a) nutqning ravonligi;

- b) nutqning aniqligi va mantiqiyligi;

- v) nutqning ifovabiyili;

- g) nutqning sofligi uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi: jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxasislariga xos so'zlar), vul'garizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rin bo'limgan vaziyatlarida rasmiy nutqda so'zlar) so'zlaridan holi bo'lishi, boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

- d) nutqning ravonligi;

- j) nutqning boyligi (so'zlash jarayonida maqsadga muvofiq tarzda hikmatli so'zlar maqollar hamda ko'chirma gaplardan foydalana olish).

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

9. O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda, bejirim kiyinish, ta'lif-tarbiya jarayonida o'qituvchining turli xil diqqatni tez jalb etuvchi bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, ko'z qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishish) ega bo'lishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

O'z-o'zidan ma'lumki bu vazifalarni maktabning o'zигина to'liq hal e'tolmaydi. Maktab tarbiyasini oila, mahalla tarbiyasi to'ldiradi. Shaxsnинг таркиб топишидаги мағбуот ва оммавиёй-ахборот виситалари жиддиёй та'sир ко'рсатади. Бироқ, ўш авлодга та'lif va tarbiya berishda ularning hech qaysisi maktab o'rnini bosa olmaydi. Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlارимиз ijtimoiy jamiyat va ilmiy-texnika tara'qiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar.

Maktab yoshlarni dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy ehtiyojlari uchun negiz yaratadi, ularni irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt-saodati yo'lida sidqidildan mehnat qilishga tayyorlaydi. O'quvchilarga tarbiya berish ularga ta'lif berish bilan mucahkam va yaxlit birlikda amalga oshiradi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, boshqalar, shakl hamda uslublari bor. O'quv-tarbiyaviy jarayonning uzviyligi maktab oldiga qo'yilgan eng muhim tarbiyaviy ishlar metodikasi qoidalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham guruhdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir. Bu esa bevosita sinf rahbariga bog'liqdir.

Sinf rahbarining yana bir asosiy vazifasi, darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda asosiy vazifalari bo'l mishilmish ilm olishga ishtiyoq uyg'otish qobiliyati va iste'doddalarini ro'yobga chiqarishda, mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ruhan va aqlan tarbiyalashdan iboratdir.

Yana shuni qayd etib o'tish kerakki, o'quvchilarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo'lmaydi. Guruhdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilar faoliyatining barcha qoidalarni qamrab olmog'i lozim. Har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rganish guruh rahbari vazifasi hisoblanadi.

Eski, siyqasi chiqqan uslublardan voz kechish, mashg'ulotlar jarayoniga yangicha, hayotiy talqinlar olib kirish, bahslar, munozaralar uyushtirish, iste'dod va qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon yaratish, bu ishlarda bevosita o'quvchilar ishtirokini ta'minlash ayniqsa muhimdir.

Birinchi Prezidentimiz aytganidek, O'zbekiston hozirgi dunyoning turli daraja va kayfiyatdagи davlatlarning o'zaro fikrlari kesishadigan meridian nuqta bo'lib qolmoqda. Bu tabiiy hodisa. Chunki, O'rta Osiyo va Yaqin Sharqda O'zbekiston juda katta ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, geosstrategik mavqega ega. Ular davlatimizni o'zlarining yaqin kelajakdagi ishonchli hamkorlari qilib olishga intilmoqdalar. Bu ishlар o'z-o'zidan

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ma'lumki, turli siyosiy kanallar, uchrashuvlar, shartnomalar, munosabatlar, fikrlar oqimi orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, jamiyatning istiqboli, yosh avlodning kelajagi maktablarda tarbiyalanayotgan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga va ularga ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchilarga bog'liqdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Modern equipment of laboratory rooms on the subject of technology. AH Sodikova Theoretical & Applied Science, 659-662
2. Improving the methodology of using digital technologies in the development of professional competencies of future technology teachers mnnmonsa Hayitovna International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) 14
3. Развитие навыков самостоятельной и творческой работы студентов по общеобразовательным предметам по направлениям бакалавриата в Республике Узбекистан Сайфуллаева Д.А., Содикова А.Х., Солиева М.А. Вестник науки и образования, 60-64
3. Didactic opportunities for the development of special competencies in students of technological education Sodikova A.H. International scientific conference" innovative trends in science, practice ...
4. Технологик таълим йўналиши талабаларида таянч, касбий ва маҳсус компетенцияларни ривожлантиришнинг дидактик имкониятлари Sodikova A. Science and innovation 1 (B6), 15-20
5. Шахснинг касбий фаолиятини ўрганишга психологияк ёндашув Содикова А. Центр научных публикаций (buxdu.uz) 31 (31)
6. The importance of independent education in the future technology science teachers in the process of developing their special competencies. Sadikova A. Science and innovation 2 (B3), 478-482
7. The scientific-methodological importance of independent education in the development of special competencies of future technological education teachers. Sodikova A. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 140 (ISSN ...
8. Признаки процесса обучения АХ Содикова УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА 49
9. New Uzbekistan—The Value of Membership in the Continuous Education System Содикова А. Центр научных публикаций (buxdu.uz) 31 (31)
10. Дидактические возможности развития специальных компетенций студентов технологического образования Содикова А.Х. Science and innovation in the education system 2 (5), 118-124.